

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

BO‘YMODARON (*ACHILLEA MILLEFOLIUM*) O‘SIMLIGI DORIVORLIGI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdumalikova Sarvinoz Farhod qizi

Mamatkulova Iroda Ergashevna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

„Biotexnologiya” yo‘nalishi

e-mail: farzuna56@gmail.com

Annotatsiya: Oddiy Bo‘ymodaron - Asteraceae oilasining muhim turi bo‘lib, an’anaviy tibbiyotda Yevropadan Osiyogacha bo‘lgan bir qancha mintaqalarda spazmatik oshqozon-ichak kasalliklari, gepatobiliar, ginekologik kasalliklarni davolash, yallig‘lanishga qarshi va yaralarni davolashda keng qo‘llaniladi. O‘simlik tarkibida karotin, K va C vitaminlar, axillein va betonitsin alkaloidlari, 0,8% gacha efir moyi, matrikarin izomeri, millefin laktoni kabi moddalar mavjud [1;4].

Kalit so‘zlar: Karotin, K va S vitaminlari, efir moyi, millefin laktoni, gastrit, monoterpenlar, in-vitro, in-vivo.

O‘simlikning dorivorligi va qo‘llanilishi: Oddiy bo‘ymodaron - *Achillea Millefolium* L. astradoshlar Asteraceae- (murakkabguldoshlar - Compositae) oilasiga kiradi. Ko‘p yillik bo‘yi 20-50 (ba‘zan 80) sm ga yetadigan o‘t o‘simlik. Tibbiyotda Oddiy bo‘ymodaron o‘simligining yer ustki qismi ishlatiladi. Oddiy Bo‘ymodaron tarkibida monoterpenlar bo‘lib, monoterpenlar sesquiterpenlarga nisbatan efir moylarining 90% ni tashkil etuvchi vakili bo‘lib, metabolitlar va kimyoviy birikmalarning keng doirasi ham qayd etilgan. Ko‘pchilik turli xil farmakologik tajribalarning in-vitro va in-vivo modellari *A. millefoilumning* yallig‘lanishga qarshi, yaraga qarshi, saratonga qarshi faoliyat va boshqalarda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan. Oddiy Bo‘ymodaron o‘ti shamollashga qarshi va bakteritsid xususiyatlarga ega. Undan qaynatmalar, damlamalar ko‘rinishida turli xil me‘da-ichak kasalliklari, oshqozon yallig‘lanishi va gastritni davolashda foydalaniladi. Oshqozon uchun ichiladigan va ishtaxani ochadigan choylar tarkibiga kiradi. Oddiy bo‘ymodaron olinadigan preparatlar qichitqi o‘ti bilan birga ichki va tashqi qon ketishlarda qonni to‘xtatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Achillea millefolium- turli farmatsevtik maqsadlarda qo‘llaniladigan muhim dorivor o‘simlikdir. *A. millefolium* asrlar davomida bezgak, gepatit va sariqlik kabi turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. *A. millefolium* odatda jigar kasalliklarini davolash uchun buyuriladi. Shuningdek, u yallig‘lanishga qarshi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

vosita sifatida ishlatiladi va gepatoprotektiv o'simlik hisoblanadi. *A. millefolium* qo'shimcha foydalanish uchun xavfsiz hisoblanadi. Shuningdek, u antigepatotoksik ta'sirga ega. U biriktiruvchi vosita sifatida ya'ni regeneratsiya xususiyatini yaxshilovchi xususiyatga ega vosita sifatida, gemorroy, bosh og'rig'i, qon ketishining buzilishi, ko'karishlar, yo'tal, gripp, pnevmoniya, buyrak toshlari, yuqori qon bosimi, hayz davrining buzilishi, isitma, revmatoid artrit, podagra, osteoartrit, gemorragik kasalliklar, suvchechak, qandli diabet, sistitda buyuriladi, dispepsiya, ekzema, toshbaqa kasalligi va furunkullar kabilarda tavsiya etiladi.

Bo'yumodaronning barglari va savatchasi tarkibida efir moyi bo'lib, moyning tarkibida esa azulenlar, murakkab efirlar, kamfora, tuyol, sineol, kariofillen, chumoli, sirka va izovalerian kislotalari mavjud. O'simlik, shuningdek oshlovchi moddalar, smola, vitaminlar, alkaloidga o'xshagan axillein moddasini va boshqalarni saqlaydi. Bu o'simlikning barcha sharoitlarda o'sa olish xususiyati uning keng tarqalishida ham katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning barcha tog'li hududlarida tabiiy xomashyo zaxirasi yetarli darajada. Ba'zi bir manbalarda bu o'simlik poyasi tuproq erroziasida ko'chma qumlarni mustahkamlovchi o'simlik sifatida ta'riflangan. Oddiy Bo'yumodaronning quyuq o'tzor, qalin chim hosil qilishdek biologik xususiyatini hisobga oladigan bo'lsak, ayniqsa sel va surilma xavfi bor bo'lgan tog' mintaqalarida vosita sifatida tavsiya etiladi [1;2].

Yetishtirish texnologiyasi: Bo'yumodaron o'simligini O'zbekiston Respublikasida tarqalgan barcha sug'oriladigan tuproqlarda (sho'r yerlardan tashqari) ekib o'stirish mumkin. Ayniqsa sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda ekilsa yaxshi o'sadi va rivojlanadi. Undan mo'l hosil yig'ib olish mumkin bo'ladi. Ko'p yillik ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yovvoyi holda o'sadigan bo'yumodaron o'simligiga nisbatan, ekib o'stiriladiganlari tarkibida biologik faol moddalar ko'proq to'planadi va xomashyosini vaqtida yig'ib olinadi. Undan tashqari ularning ayrim noyob, kamayib ketayotgan turlarini ko'paytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bo'yumodaron ekiladigan yerlarni kuzda organik va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirib, 25-27 sm chuqurlikda traktor bilan haydab qo'yiladi. Bo'yumodaron ko'p yillik o'simlik bo'lgani uchun uni kech kuzda va erta bahorda ham ekish mumkin. O'simlikni urug'idan va vegetativ yo'l bilan ham ko'paytiriladi. Ekish davrida eng saralangan urug'lardan foydalaniladi. Urug'ning unib chiqish qobiliyati 90-95% dan kam bo'lmasligi kerak. Bo'yumodaron o'simligini erta bahorda tuproq harorati 14- 15°C bo'lganda jo'yaklar oralig'ini 60 sm dan qilib saralangan urug'ni sabzavot seyalkalarida sepish mumkin. Ekish chuqurligi erta bahorda 1,5-2 sm qilib gektar hisobiga 6-7 kg urug' sarflanadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 3, 30 Ноября

Kuzda esa ekish chuqurligi 0,5-1,5 sm va urug' normasi 8-10 kg dan kam bo'lmasligi kerak. O'simlikning urug'lari bir tekislikda unib chiqishi uchun tuproqda nam yetarli bo'lishi lozim. Tuproq juda mayin, yer bir tekis molalangan va urug' bir xil chuqurlikda ekilishi shart. Bo'yumodaron o'simligini o'sish davrida ishlov berish avvalo urug'lar unib chiqqandan keyin boshlanadi. O'simlik vegetativ yo'l bilan ko'paytirilganda uning rivojlanishi uchun yer chuqur qilib haydaladi. Unga ekish bilan birga gektar hisobiga 15-20 kg dan azot o'g'iti ham beriladi. Nihollar tuproq harorati 20°C bo'lganda yaxshi ildiz ota boshlaydi. Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida yuqori saviyada o'tkazilsa, bo'yumodaron gektariga 1000-1200 kg xomashyo va 400-500 kg urug' yig'ib olish mumkin [3;4;5].

Xulosa: Bo'yumodaron o'simligini urug'lardan ko'paytirishimiz va bo'z tuproqli yerlarda ko'chatdan katta plantatsiyalarni yetishtirishimiz zarur. Bu undan olinadigan dorivor preparatlar miqdorini oshirishga va tuproq erroziyani kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farmakognoziya, Fitokimyo va Axilleyning farmakologik xususiyatlari millefolium L: Sharh. Sofi Imtiyaz Ali, B. Gopalakrishnan va V. Venkatesalu Botanika fakulteti, Annamalay universiteti, Annamalainagar Tamil Nadu, Hindiston. 2017-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi Toshkent Farmasevtika insituti Toshkent Davlat Agrar universiteti O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, va D.Mustafakulov "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya" Toshkent - 2020 yil (196-201 betlar).

3. "Dorivor va Ozuqabop o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish bo'yicha" yo'riqnoma. Toshkent-2005 (70-72 betlar).

4. H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov, "Farmakognoziya" I-qism Toshkent – 2008 yil (271-275 betlar).

5. L.X.Yoziyev, N.Z. Arabova [Dorivor O'simliklar] Toshkent 2017, (92-93 betlar).